




RESPUBLIKADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BANDLIKNI TA'MINLASHNI EKONAMETRIK MODELI

Tursunova Manzuraxon Xojiakbar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Shakirova Nigora Axralovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy
statistika" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11206894>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2024 yil

Ma'qullandi: 15-may 2024 yil

Nashr qilindi: 17-may 2024 yil

KEY WORDS

*biznes, tadbirkorlik, ssuda, subvensiya,
subsidiya*

ABSTRACT

Ushbu Tadqiqot jarayonida Respublika bo'yicha kichik bizneslar va tadbirkorlik sohasidagi ma'lumotlar to'plami, shu jumladan daromad, ishlab chiqarish miqdori, inflatsiya darajasining o'zgarishi, moliyaviy sohalarning rivojlanishi, siyosiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami, boshqa moliyaviy va iqtisodiy faktorlar kiritilgan. Model yaratilgandan so'ng olingan natijalar tahlil qilinadi va ularning kichik bizneslar va tadbirkorlik sohasidagi bandlikni ta'minlashga o'z ta'siri o'rganiladi.

Bozor iqtisodiyotida biznes va xususiy tadbirkorlik erkinligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin kasb etadi. "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik - mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir". O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun asosida biznes va tadbirkorlik faoliyati tartibga solinadi. Ushbu konunda ta'riflanishicha "tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foйда) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir". Tadbirkorlik, bu inson faoliyatining ko'p qirrali sohasi bo'lib, yangilikni yaratish bilan bog'liq bo'lgan, risk qilishga qodir bo'lgan, kelajakka intiluvchi, daromad olishdan umidvor bo'lgan va shu bilan birga yo'qotish va zarar ko'rishga ham tayyor bo'lgan, san'at turi kabi ijodiy jarayonni o'z ichiga oladigan faoliyatdir. Tadbirkorlik va biznesni farqlash uchun ularni birozgina chuqurroq ko'rib chiqamiz.

Biznes - jamiyatdagi muommolarni hal qilish orqali foyda topish imkoniyati. Ushbu muommoni qandaydir foyda evaziga (albatta qonun doirasida) hal qila oladigan kishi – tadbirkor hisoblanadi, undagi ba'zi sifatlar to'plami: aql, kreativlik, maqsadga intiluvchanlik, bu insonning yashash tarzi demakdir.

FOYDA = DAROMADLAR - XARAJATLAR.

Shu formula yordamida biznes va biznes yuritishni tushuntirish mumkin. Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ichki va tashqi omillar muhim ro'l o'ynaydi, masalan resurslar (yer, ishchi kuchi, capital, tadbirkorlik), kerakli insonni kerakli bolgan ish joyiga qo'yish, ya'ni ishchi kuchidan to'g'ri foydalanish, ishlab chiqariladigan xizmat yoki mahsulotlar, mamlakatning ayni davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy holati. Biznes pulsiz juda yomon ishlaydi. Bekorga pul - iqtisodiyotning qoni deb aytishmagan.

Tadbirkorlik, deb har qanday qonuniy tijorat faoliyatiga aytiladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs tadbirkor, deyiladi. Tadbirkorlik xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab, yirik, o'rta va kichik turlarga bo'linadi. Yirik tadbirkorlik ishlab chiqarishda 500 dan ortiq kishi band bo'lgan, o'rta tadbirkorlik esa 20–500 kishi band bo'lgan korxona yoki firmalar, kichik tadbirkorlik 10–20 va undan kam kishi ishlaydigan korxonalarni qamraydi. Yirik va o'rta tadbirkorlikka, asosan, yirik ishlab-chiqarish, ko'p sonli tovarlar chiqaradigan, mexanizatsiyalashgan hamda avtomatlashgan sohalar kiradi. Kichik tadbirkorlik qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida keng tarqalgan. Kichik tadbirkorlik sharoitga tez moslasha olishi bilan boshqalaridan farqlanadi va shuning uchun u keng tarqalgan xo'jalik yuritish turi. Tadbirkorlikni shakllantirish uchun sharoitlar, masalan: tovarga bo'lgan talab va taklif; xaridor sotib olishi uchun tovar turlarining mavjudligi; xaridor sotib olishi uchun zarur pulning mavjud bo'lishi; ishchilarning maoshiga, ya'ni sotib olish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi o'rinlari, ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki yetishmovchiligini yaratish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son farmoniga ko'ra, moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil variantlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortgan paytda, biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi"ning amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik subyektlariga yetarlicha yordam ko'rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish, xalqaro moliya institutlaridan to'g'ridan-to'g'ri mablag' jalb etish imkoniyatini berish uchun belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda Jamg'arma faoliyatini jahon tajribasi asosida tashkil etish va tadbirkorlik subyektlariga ko'maklashish bo'yicha kompleks tizimni yaratish maqsadida qator vazifa, maqsadlar qo'yilib, mas'ullarga ijro yuklatilgan. Ijroga ko'ra, Jamg'arma Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta'sischiligida "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilingan. Mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb qilinib, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o'rinlari yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar hamda tadbirlarni amalga oshirildi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdagi mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatiga samarali yangi texnologiyalarni joriy etilib, o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlaridan kelib chiqib ularning loyihalariga moliyaviy ko'maklashish, xizmatlar ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirish

sohasida “yashil” va energiya tejovchi texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni keng qo'llab-quvvatlandi.

2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish, “yashil” va energiya samarador loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlariga moliyaviy resurslarni ajratish maqsadida Kompaniyaga xalqaro moliya institutlaridan 100 million AQSh dollari miqdorida mablag` jalb etish, kompaniya bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari texnik ko'magi asosida 2024-yil 1-mayga qadar Kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2026-yildan boshlab Kompaniyada boshqaruvning zamonaviy tizimlari va xalqaro standartlarni (ISO, SAP) joriy qilish va u tomonidan yetakchi xalqaro agentliklarning kredit reytingi olinishini ta'minlash orqali mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida aksiya va obligatsiyalar chiqarish hamda resurslar jalb qilish va 2024-2027-yillarda bosqichma-bosqich Kompaniya daromadlarini kamida 50 foizga oshirish orqali o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish reja qilib olingan, unga ko'ra:

- kompaniya tomonidan tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yordamlarni taqdim etishning miqdorlari, parametr va qoidalariga o'zgartirish kiritish, shu jumladan yangi xizmat turlarini joriy etish;
- loyihalarning biznes-reja va samaradorlik ko'rsatkichlari past bo'lgan hollarda moliyaviy yordamlarni to'xtatish vakolati;
- axborotlashtirish qurilmalari va xizmatlari hamda dasturiy ta'minotlarni yetkazib beruvchi korxonalar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish huquqi beriladi.

Tadbirkorlik va biznesni moliyalashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali iqsodiy infratuzilmani yo'lga qo'yish anchayin yengillashadi. Umuman olganda barcha sohada fundamental masalalar bitirilib, so'ng ular asosida moliyalashtirishga kirishiladi va shu o'rinda aytish joizki, tadbirkorlarni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, muddatli kreditlar, subsidiya (([lotincha](#): *subsidium* — yordam, nafaqa, qo'llabquvvatlash) - davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natural shaklidagi yordam.), subvensiya ((*lot. subvenire* - yordamga kelmoq) - Qonun hujjatlarida nazarda tutulgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarilmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari. Dotatsiyadan farqli ravishda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi.), ssuda(moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik.) kabi pullar berilishi tadbirkorlik subektlarining istiqbolli onlariga yaqinlashtirdi. Yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan boshlang'ich tadbirkorlar ro'yxatdan o'tganlaridan so'ng yarim yil nchida 5% kredit olishlari mumkin yoki Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 1/6 qismi hajmida kredit bernaladi. Dastlabki kapitalni shakllantirish uchun kreditlar faqat yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarga beriladi. Buning uchun ular davlat ro'yxatidan o'tganlaridan so'ng 6 oydan kechikmasdan kreditlash uchun ariza topshirgan bo'lishlari kerak. Nobyudjet mablag'lardan ajratilgan imtiyozli kreditlar foiz stavkasi bank marjasini ham o'z ichiga oladi. Dastlabki kapital uchun nobyudjet fondi hisobidan kreditlar 3 yil muddatga, dehqon va fermer xo'jaliklari uchun esa 2 yil muddatga beriladi. Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash fondi orqali kreditlar 3 yil muddatga beriladi. “Biznes-

fond" mablag'larini "Privaytbank", "Hamkor-bank", "Sanoat-kurilish banki", "Uy-joy kurilish bank" (JSB), lardan olish mumkin. Bu banklar 12%lik kredit bera oladi. Markaziy bank ishlab chikarish korxonalari uchun berilgan kredit so'mmasini kaytarib olish me'yorini 20%dan 30%gacha belgilab qo'ygan. Bu juda katta foiz. Bunday foizdagi kreditlarni boy bo'lgan katta korxonalar olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.P. Umurzakov, A.J.Toshboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik / o'quv qo'llanma. Toshkent: "Sano-standart", 2014. 480 bet.
2. Shadieva, G. (2021). Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni pivojlantirishning ayni nazariy jihatlar. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 210-215.
3. Shodibekova D. A., Shodibekov D.I. "Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari" (o'rta maxsus o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma). – T.:Iqtisodiyot 2013. 226 bet.
4. <https://lex.uz/docs/-2221221>
5. <https://lex.uz/docs>
6. <https://lib.jbnuu.uz/storage/books/October2022/m0ZCTpKdRYGUgbGiaNWp.pdf>
7. Koenker, R.W. (1981). A note on studentizing a test for heteroscedasticity. Journal of Econometrics, 17, 107-112.
8. Höskuldsson, A., Rodionova, O.Y., & Pomerantsev, A.L. (2007). Path modeling and process bcontrol. Chemometrics and Intelligent Laboratory Systems, 88, 84-99.

INNOVATIVE
ACADEMY